POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

JO‘LLIYEV ZAVQIDDIN NORMENGLI O‘G‘LI

PEROVSKIT YUTUVCHI QATLAMINING SHAKILLANISH XUSUSIYATLARI BILAN UNGA ASOSLANGAN QUYOSH ELEMENTLARINING KONVERSIYA KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

01.04.06 – Polimerlar fizikasi
02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘T : 621.383.52:621.35.049.77:621.3.019.3

Fizika - matematika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) физико – математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Physics and Mathematics sciences

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

JO‘LLIYEV ZAVQIDDIN NORMENGLI O‘G‘LI

PEROVSKIT YUTUVCHI QATLAMINING SHAKILLANISH XUSUSIYATLARI BILAN UNGA ASOSLANGAN QUYOSH ELEMENTLARINING KONVERSIYA KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

01.04.06 – Polimerlar fizikasi
02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika - matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1331 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Nigmat Rustamovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Matrasulov Davronbek Urunovich** fizika –matematika fanlari doktori,professor
	Turaeva Nigora Nazarovna fizika - matematika fanlari doktori,professor
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huziridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «__» ***yanvar*** soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7^b uy. Tel.:(+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-61, e-mail: polymer@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7^b uy. Tel.:(+99871) 241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» ***dekabr*** kuni tarqatildi.
(2025 yil «__» ***dekabr*** dagi __ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.Sh.Rashidova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor, akademik

I.N.Nurgaliyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Ataxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholi soni oʻsib borayotgani sababli energetik resurslarga boʻlgan talab global miqyosda shiddat bilan oshmoqda. Bu yoʻnalishda, arzon, ishlab chiqarish texnologiyasi sodda va yuqori samaradorlikka ega perovskit quyosh elementlarini yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonning yetakchi ilmiy markazlarida perovskit asosidagi quyosh elementlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun ularning oldida hal qilinishi lozim boʻlgan bir nechta muhim muammolarni hal qilish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu borada, perovskitning optoelektron xossalarini kuchaytirish, deffektlarni passivatsiya qilish va ularni kamaytirish yoʻllarini topish , qurilmalar barqarorligini oshirish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamizda ham soʻngi yillarda alternativ quyosh elementlari boʻyicha izchil fundamental va amaliy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, perovskit quyosh element (PQE) larida konversiya koʻrsatgichini yaxshilash, asosan foal qatlamga maxsus qoʻshimchalar kiritish orqali optimal sharoyitlarini topish va ularning roʻlini tushuninish va shular asosida olingan elementlarning barqarorligini oʻrganish boʻyicha dastlabki qoʻyilgan qadamlarda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Mazkur izlanishlar shuni koʻrsatadiki, turli maxsus qoʻshimchalar yordamida perovskit foal qatlamining yakuniy donalarining oʻlchami kattalashishiga tasir qiladi va chegaraviy sirtlarining kamayishi evaziga, yuqori konversiya koʻrsatkichiga ega fotovoltaik qurilmalarni olish imkonini beradi. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish boʻyicha Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi[1] hamda 2030-yilgacha boʻlgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida[2] “ Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qoʻllab-quvvatlash..” vazifalari belgilangan. Ushbu yoʻnalishda qayta tiklanuvchi quyosh elementlarining yangi avlodini yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi 2019-yil 21 maydagi OʻRQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish” toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston respublikasining qonuni, 2019-yil 22-avgustdagi PQ – 4422-son “Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish boʻyicha tezkor chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi qarorlarda koʻzda tutilgan ilmiy texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Qarorlaridagi hamda muqobil energetikadan foydalanishga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» Farmoni;

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida» Farmoni;

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning: III “Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va elektron asbobsozligi rivojlanishi”, II “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” va VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” kabi ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘plab yetakchi ilmiy markazlarida perovskit asosidagi quyosh elementlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun ilmiy izlanishlar faol olib borilmoqda. Planar tuzilmali perovskit quyosh elementlari (PQE) bo‘yicha olib borilgan ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirishga Park N.G, Snaith H. J. va bir qator olimlar katta hissa qo‘shishgan. Dunyoning ko`plab mamlakatlarida perovskitning kristall sifati, donachalar o‘sishi va barqarorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, additivlar yordamida kristallanish jarayonini boshqarish bo‘yicha Yang Yang, J. Hou va A. Hagfeldt guruhlari, morfologiyani optimallashtirish va yuqori sifatli qatlamlar olish yuzasidan A. Graetzel, M. Saliba hamda H. J. Snaith jamoalari va PQEning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash maqsadida p–i–n tuzilmalarida interfeys muhandisligi bo‘yicha Y. L. Loo, S. R. Forrest va M. Graetzel guruhlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

Respublikamizda mazkur yo‘nalish rivojiga akademik S.Sh. Rashidova, professorlar N. R. Ashurov jamoasi hamda B. L. Oksengendler, N. N. Turaeva, D. U. Matrasulov, E. Zaxidov, A. Zaxidov, va boshqalar o’z ilmiy izlanishlari bilan organik–noorganik perovskitlar bo‘yicha o’z hissalarini qo’shgan.

Ushbu izlanishlarga qadar adabiyotlarda PQE samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lgan perovskit qatlamining morfologiyasini shakllantirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish, xususan maxsus qo‘shimchalar kristall o‘sishiga ko‘rsatadigan ta’sirning aniq mexanizmini ochib berish bo‘yicha yetarli ilmiy asoslar shakllanmagan. Bu esa aktiv qatlamning kristallanish jarayonini barqaror boshqarish va qurilma samaradorligini takrorlanuvchan holda ta’minlash imkonini cheklaydi.Bundan tashqari, p–i–n tuzilishli PQElarda optimal morfologiya, optoelektron xususiyatlar va uzoq muddatli barqarorlikni turli tashqi omillar ostida baholash yuzasidan tizimli tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois, yuqori samarali va barqaror PQE yaratish, hamda amaliy qo‘llanishda uchraydigan asosiy muammolarni bartaraf etish uchun mazkur yo‘nalishda chuqur fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti bazaviy ilmiy tadqiqot ishlari rejasi (2020–2024 y.) hamda REP-24112021/33 «Perovskite solar cells with optimized performance and stability» (2022–2024 y.) mavzularidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi prekursor eritmalaridan perovskit absorber hosil bo‘lishi kinetikasini ularning morfologiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganish hamda maxsus qo‘shimchaning (tiomochevina) polikristallarning yiriklashuvidagi rolini va ularni invertlangan quyosh elementlarining samaradorligi va barqarorlik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

oraliq komplekslar hosil bo‘lishining turli erituvchilardagi prekursorlar konsentratsiyaga bog‘liqligini o‘rganish va perovskit absorberining morfologiyasini rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan strukturaviy parametrlarni aniqlash;

maxsus qo‘shimcha tiomochevinaning – Lyuis asoslari sifatida perovskit absorber hosil bo‘lishining barcha bosqichlarida (spinning, gaz-quenching va antisolvent qo‘llash, termoishlov berish) tutgan rolini aniqlash;

spinning bosqichida qo‘llaniladigan yondashuvlar – gaz quenching va antisolvent usullarini perovskit absorber morfologiyasini rivojlanish dinamikasi bo‘yicha qiyosiy baholash;

optimal morfologik va optoelektron xususiyatlarga ega invertlangan quyosh elementlarini yaratish, ularning konversion ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsion bog‘liqliklarini aniqlash;

p-i-n tuzilmasiga ega PQElarining barqarorligini turli sharoitlarda tekshirish.(interfeys muhandisligi (interface engineering) yordamida elementning barqarorligini oshirishdir)

Tadqiqot ob’yekti – $MAPbI_3$, perovskit aktiv qatlamlari, PTAA- polimer yarim o‘tkazgich kovak o‘tkazuvchi qatlam sifatida. Maxsus qo‘shimcha – tiomochevina (Thiourea) va SnOx elektron transport qatlamlari, ular asosidagi quyosh elementlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti prekursor siyohidagi kolloid qo‘rg‘oshin komplekslari, maxsus qo‘shimcha qo‘shilgan $MAPbI_3$ perovskitida donacha o‘lchami, kristall tuzilishi, shuninigdek ular asosidagi ITO/PTAA/$MAPbI_3$/PCBM/AZO/(SnOx)/Ag tuzilmasiga ega quyosh elementlari, optik, optoelektron, fotovoltaik va barqarorlik xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. PQElarini tayyorlashda spin-koating, antierituvchi, gaz bilan sovutish , maxsus qo‘shimchalar, termik ishlov berish usullaridan foydalanildi. XRD, GIWAXS, SEM, UPS, AFM, YaMR spektroskopiyasi tadqiqotlar usullaridan perovskitlardagi kristall panjara va morfologiyani o‘rganish uchun foydalanildi. UV-Vis hamda in situ UV-Vis absorbsion optik spektroskopiyasi, statsionar va kechikkan fluoressensiya, Raman spektroskopiyasi, ultrabinafsha fotoelektron spektroskopiyasi va rentgen nurlari fotoelektron spektroskopiyasi usullari orqali na’munalarning optik va elektron parametrlari tadqiq qilindi. Volt – amper xarakteristikasi, elektrokimyoviy impedans spektroskopiyasi, usullaridan qurilmalarning samaradorligi, kabi parametrlarni aniqlashda foydalanildi. Barqarorlik sinovlari maksimal chiqish quvvati, usullari va boshqa standart protokollar yordamida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor perovskit absorber shakllanishida erituvchi turidan qatiy nazar, prekursor konsentratsiyasi ortishi bilan poliyodid komplekslarining o‘sish qonuniyati aniqlangan;

ilk bor tiomochevina qo‘shimchasining perovskit kristallanish jarayonidagi roli aniqlangan;

ikki qatlamli AZO/SnO_x elektron ekstraksiya qatlami (EEL) asosida barqaror $MAPbI_3$ga asoslangan p-i-n strukturaga ega quyosh elementi ishlab chiqildi, bunda SnO_x qatlami ion migratsiyasi va elektrod korroziyasini samarali bostiruvchi ko‘p funksional to‘siq sifatida ishlashi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

poliyodid perovskitga o‘xshash strukturalarning yagona o‘sish qonuniyati aniqlanib, erituvchi turidan mustaqil ekani va konsentratsiya ortishi bilan yuzaga chiqishi ko‘rsatildi. Ushbu xulosa ^{207}Pb YaMR, UV-Vis, UPS va elektr o‘tkazuvchanlik o‘lchovlari orqali miqdoriy tasdiqlandi;

ilk bor tiomochevina qo‘shimchasi mavjudligida perovskit absorberning struktural evolyutsiyasi to‘liq tushuntirib berildi.

YaMR va UPS natijalari ushbu effektning ionlarning yuqori harakatchanligi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi, bu ehtimol tiomochevina molekulalarining termal sharoitlarda yuqori harakatchanligidan kelib chiqadi. Umumiy holda, bu natijalar tiomochevinaning kristall o‘sishini osonlashtiruvchi mexanizmini izchil tushuntirib berdi;

yuqori vakuum sharoitida issiqlik stressi sinovi PQElarida interfeys muhandisligining muhim rolini tasdiqladi. SnO_x qatlamining kiritilishi Ag elektrod korroziyasini samarali ravishda bostirdi va fizik hamda elektr mustahkamlikni yaxshiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida perovskit quyosh elementining barcha parametrlarini aniqlash uchun zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Strukturaviy, optik, elektron, fotovoltaik va barqarorlik tadqiqotlarining natijalari bir-birini tasdiqlaydi. Tasodifiy tabiatga ega miqdorlarni tahlil qilish uchun har bir turdagi qurilmadan 10 tadan tayyorlangan va ularning parametrlari bir hil sharoitlarda o‘lchandi. Olingan ilmiy va amaliy natijalar qator respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Taqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, perovskit absorber shakllanish jarayonida poliyodid komplekslarining konsentratsiyaga bog‘liq o‘sish qonuniyati universal ekanligi va erituvchi turidan mustaqilligi eksperimental usullar (^{207}Pb YaMR, UV-Vis, UPS, o‘tkazuvchanlik o‘lchovlari) orqali miqdoriy tasdiqlandi.Tiomochevina qo‘shimchasining perovskit kristallanish dinamikasidagi roli aniqlandi; uning termik ishlov davrida faollashib, kristallarning <110> yo‘nalishi bo‘yicha qayta yo‘nalishi va o‘sishini rag‘batlantirishi, bu effektning ionlarning yuqori harakatchanligi bilan bog‘liqligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ikki qatlamli AZO/SnO_x elektron ekstraksiya qatlami asosida ishlab chiqilgan ITO/PTAA/$MAPbI_3$/PCBM/AZO/(SnOx)/Ag tuzilmasiga ega barqarorroq va yuqori samarali PQElarini yuqori vakuum sharoitida issiqlik stressiga chidamli bo‘lib, SnO_x qatlami namlik va parchalanish mahsulotlarining kirishini oldini olgan holda, elektrod korroziyasini samarali bostirdi va qurilmaning ishlash muddatini uzaytirish ikmoniyatlari mavjudligi tadqiq qilindi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Perovskit yutuvchi qatlamining shakllanish xususiyatlari bilan unga asoslangan quyosh elementlarining konversiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik” mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tiomochevina kabi maxsus qo‘shimchalar (additive) aktiv qatlamga kiritish orqali va aktiv qatlam ustida o‘stirilgan SnO_x qatlamli zich to‘siq ko‘rsatilgan FA S.A.Azimov nomidagi Fizika-texnika institutida bajarilayotgan IL-5421101892 raqamli “Yarim o‘tkazgichli perovskitlarga asoslangan energiya tejamkor tuzilmalarning yorituvchanlik xususiyatlarining fundamental asoslarini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (2025-yil 8-sentyabr №01/467 raqamli ma’lumotnoma). Muvaffaqiyatli qo‘llanilgan tiomochevina($SC(NH_2)_2$) kabi maxsus qo‘shimchalar (additive) kiritish orqali CsPbBr3 aktiv qatlamidagi kristallitlar (grain) o‘lchami kattalashtirilishi aniqlangan. SnOx elektron ekstraksiya qatlami (EEL) arxitekturasi CsPbBr3 asosidagi fotosezgir qurilmalarda qurilmalarning uzoq muddatli ishlash barqarorligiga erishilgan.

NATOning “Tinchlik va xavfsizlik yo‘lida fan” (SPS) dasturi tomonidan moliyalashtirilgan, Vuppertal “Aqlli materiallar va tizimlar” markazi (Wuppertal, Germaniya) va Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti (Toshkent, O‘zbekiston) hamkorligidagi “Light Harvesting in Space with Perovskite Solar Cells (SpacePerCells)” mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan.Dissertatsiyada ishlab chiqilgan va ITO/PTAA/$MAPbI_3$/PCBM/EEL/Ag qurilma arxitekturasida qo‘llanilgan AZO/SnO_x ikki qatlamli elektron ekstraksiya qatlami (EEQ) quyosh elementlarining uzoq muddatli ishlash barqarorligi va chidamliligini sezilarli darajada oshirish imkonini bergan. Xususan, ushbu elektron ekstraksiya qatlami samarali o‘tkazmaydigan to‘siq (permeation barrier) vazifasini bajarib, perovskit qatlamidagi mobil ionlar migratsiyasini to‘sish hamda galoid birikmalarining tashqariga chiqib ketishini oldini olishda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Bu natijalar kosmik sharoitlar uchun xos bo‘lgan past bosim (vakuum) sharoitida qurilmalarning funksional ko‘rsatkichlarini saqlab qolish imkonini bergan. *(*Tasdiqlovchi hujjat: Vuppertal universiteti professorining tavsiyanomasi va hamkorlik loyihasi ma’lumotnomasi*)*.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya bo‘yicha olingan asosiy natijalar 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyektlari va predmetlari belgilangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori sifatli perovskit plyonkalarini olish muammosining hozirgi holati, quyosh elementlarini yaratish va barqarorlashtirish strategiyalari”** nomli **birinchi bobida** perovskit yupqa qatlamlarining hosil bo'lishi, xususan, eritmadan qayta ishlash jarayonidagi murakkabliklar, kristallarning yadrolanishi va o'sish mexanizmlari, shuningdek, prekursor eritmasining holati va uning ta'siri batafsil yoritilgan.Shu bilan birga, spin-coating va termik annealing kabi asosiy texnologik jarayonlarning perovskit plyonkalari sifatiga ta'siri, ularning nazariy asoslari va qo'shimchalarning kristall donachalari o'lchami, yo'nalishi va nuqsonlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan. Ushbu bobda perovskit qurilmalarining barqaror va takrorlanadigan natijalariga erishish uchun eritma kimyosi, qoplama jarayoni va qattiq fazaga o'tish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish zarurligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot obyektlari va usullari**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** PQElarini tayyorlash va tavsiflash uchun foydalanilgan usullar va texnologiyalar batafsil bayon etilgan. Bobda qurilmaning tuzilishi, har bir qatlamning (SnO2, perovskit aktiv qatlami va kumush ustki elektrod) funksiyalari va ularni tayyorlashning o'ziga xos jarayonlari tushuntirilgan. Shuningdek, tadqiqotda qo'llanilgan optik, kristallografik, morfologik, reologik va elektrofizik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan asboblar va usullar (jumladan, UV-Vis, XRD, AFM, FTIR, SEM,) haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qurilmalarning samaradorligi va fotovoltaik parametrlari quyosh simulyatori yordamida I-V va IS o'lchovlari orqali baholangani ham yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**Invertirlangan PQE larida tiomochevina qo'shimchasi yordamida Lyuis asos-vositasida kristallanishni boshqarish**” deb nomlangan **uchinchi bobida** perovskit aktiv qatlamini shakllantirish jarayonlari chuqur o'rganilgan. Bobning asosiy maqsadi prekursor eritmalarni spin-coating va termik annealing usullari bilan tayyorlashda maxsus qo'shimchalarning, xususan,



1-rasm: Erituvchi kimyosi (turi va konsentratsiyasi): a) Perovskitni cho‘ktirish va o‘lchash usullarining sxematik ko‘rinishi. b) DMF eritmasida turli konsentratsiyalarda $MAPbI_3$ siyohlarining UB-ko‘r. yutilishi . c) Konsentratsiyaga bog‘liq holda qo‘rg‘oshin kompleksining evolyutsiyasi tasviri. d) DMF, DMSO va NMP eritmalarida $MAPbI_3$ siyohlarining ^{207}Pb YAMR spektri, prekursor molyar konsentratsiyasiga nisbatan; nuqtali chiziq qattiq holatdagi $MAPbI_3$ ni belgilaydi. e) $MAPbI_3$ va MAI ning DMF, DMSO va NMP eritmalaridagi turli konsentratsiyalardagi elektr o‘tkazuvchanligini taqqoslash; pastki panelda esa nisbiy elektr o‘tkazuvchanlik farqi (ΔEC) ko‘rsatilgan.

tiomochevinaning (NH_2-CS-NH_2) perovskit kristallanishi, morfologiyasi va optoelektronik xususiyatlariga ta’sirini aniqlashdan iborat.Bobda, avvalambor perovskit yupqa qatlamlarining hosil bo‘lish mexanizmi tahlil qilingan.Bu jarayon bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, u LaMer yadrolanish nazariyasi va Lewis kislota/asos o‘zaro ta’siri modeli asosida tushuntirilgan. Ushbu modelga ko‘ra, erituvchi molekulalari (asos sifatida) qo‘rg‘oshin komponentlari (kislota sifatida) bilan oraliq komplekslar hosil qiladi. Bu komplekslar perovskitning kristallanishini kechiktirib, yupqa qatlamning sifatini nazorat qilish imkonini beradi. Tadqiqotda turli xil donor xususiyatiga ega erituvchilar – DMF, DMSO va NMP tanlangan. Eritmalar kontsentratsiyasining o‘zgarishi bilan hosil bo‘ladigan polikomplekslarning xususiyatlari UV-Vis spektroskopiyasi, ^{207}Pb NMR spektroskopiyasi va o‘tkazuvchanlik o‘lchovlari yordamida o‘rganilgan (**1-rasm**). Olingan natijalar, eritma konsentratsiyasi oshishi bilan poliyodid komplekslarining hajmi o‘sib borishini ko‘rsatdi, bu esa zaryad-hajm nisbatining kamayishiga olib keladi.

Tadqiqotning muhim qismi sifatida, perovskit eritmasiga tiomochevina qo‘shimchasi kiritilib, uning ta’siri o‘rganildi. Tiomochevina neytral molekula bo‘lganligi sababli, u eritmada ion muvozanatini buzmaydi va bu uni samarali qo‘shimcha sifatida ishlashiga yordam beradi. Tajribaviy natijalar shuni ko‘rsatadiki, tiomochevina mavjud bo‘lganda perovskit donachalari hajmi sezilarli darajada oshadi, bu esa qurilmalarda nuqsonlarning kamayishiga va barqarorlikning yaxshilanishiga olib keladi (**2-rasm**). Rentgen difraksiyasi (XRD) va scanning electron microscopy (SEM) tahlillari qo‘shimcha kiritilgan namunalarda kristall donachalarining o‘lchami kattalashganligini tasdiqladi.



2-rasm: Tiomochevina(thiourea) qo‘shimchasining ta’siri.a) DMF:NMP prekursor siyohidan gaz bilan sovitish (gas quenching) orqali 1.0 M konsentratsiyada, 0.1 M tiomochevina(thiourea) qo‘shimchasi bilan(with) va usiz(w/o) tayyorlangan $MAPbI_3$ qatlamlarining donacha o‘lcham taqsimoti va SEM tasvirlari.b) 0.1 M tiomochevina(thiourea) qo‘shimchasi bilan(with) va usiz(w/o) tayyorlangan qatlamlarning rentgen difraksiyasi spektrlari.

Perovskit strukturasining evolyutsiyasini real vaqt rejimida kuzatish uchun in situ GIWAXS (Grazing-Incidence Wide-Angle X-ray Scattering) kabi zamonaviy sinxrotron texnikalari qo‘llanilgan (**3-rasm**).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tiomochevina qo‘shimchasi mavjud bo‘lgan namunalarda termik annealing bosqichida kristallitlar sezilarli darajada qayta yo‘nalgan va yuqori darajada tartiblangan perovskit domenlari hosil bo‘lgan. (Pastki qism) 90°/45° intensivlik nisbati orqali aniqlangan yo‘nalishli tartib donachalar o‘sishida ustun yo‘nalish mavjudligini bildiradi, bu tiomochevina bilan yanada kuchayadi. Barcha namunalar 7:3 nisbatdagi DMF:NMP erituvchi aralashmasida tayyorlangan. 200 soniya atrofida kuzatilgan artefaktlar spin-coating jarayonining tugashiga to‘g‘ri keladi.



3-rasm: Perovskit hosil bo‘lish jarayoni. a) In situ cho‘ktirish tajribasining sxematik ko‘rinishi.b) Vaqtga bog‘liq holda perovskit va PbI_2•NMP oraliq fazasining GIWAXS intensivliklari (tiomochevina(thiourea) bilan(with) va usiz(w/o)), ularning nisbiy faza tarkibini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bobda olingan eksperimental va nazariy natijalar tiomochevinaning perovskit plyonkasi hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Uning qo‘rg‘oshin va yodid ionlari bilan dinamik o‘zaro ta’siri orqali ionlarning harakatchanligi oshadi, bu esa donachalarning yanada samarali o‘sishiga va yuqori sifatli, kam nuqsonli perovskit filmlari hosil bo‘lishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning "**Perovskit quyosh elementlarida aktiv qatlamning kristallanishini nazorat qilish uchun anti-solvent va gaz bilan sovitish usullari**" deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** perovskit plyonkalarini tayyorlashda eng muhim qiyinchiliklardan biri bo‘lgan kristallanish jarayonini aniq nazorat qilish muammosi tahlil qilingan. Bobda yuqori sifatli va uzoq muddat barqaror perovskit qatlamini shakllantirish uchun keng qo‘llaniladigan anti-solvent va gaz bilan sovitish usullari o‘rganilgan.

Tadqiqotda gaz bilan sovitish usuli ancha istiqbolli alternativa sifatida keltirilgan. Bu usul, inert gaz (azot) yordamida erituvchini tezkor bug‘latib yuborish orqali kristallanishni nazorat qiladi. Uning asosiy afzalliklari sifatida jarayonni nozik sozlash (gaz oqimi tezligi, sovitish davomiyligi), bir xil, tekis yuzali va nuqsonlar kam bo‘lgan plyonkalar hosil qilish hamda keng miqyosda ishlab chiqarish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.Bobning asosiy qismi anti-solvent va gaz bilan sovitish texnikalarining optik va strukturaviy xususiyatlariga ta’sirini taqqoslab o‘rganishga bag‘ishlangan.

Bundan tashqari, UV-Vis spektroskopiyasi orqali gaz bilan sovitish usulida olingan plyonkalar butun UV-ko‘rinuvchi spektrda yorug‘likni ancha samaraliroq yutishi aniqlandi (**4-rasm**).



4-rasm: ITO shisha/PTAA/perovskitning yutilishi (Absorption). Gaz bilan sovitish (GQ) va anti-erituvchi (AS) usullarining taqqoslanishi.

Ayniqsa, 550 nm to‘lqin uzunligida yutilish koeffitsienti 1.5 dan oshgani, bu aktiv qatlamlarning yorug‘likni yutish (light-harvesting) qobiliyati yuqori ekanligini isbotlaydi.Pl (Photoluminescence) va TRPL (Time-Resolved Photoluminescence) o‘lchovlari ham gaz bilan sovitish usulining ustunligini ko‘rsatdi. Gaz bilan sovitilgan namunalarda PL intensivligi ancha past bo‘lgan, bu esa zaryadni ajratib olish jarayoni yanada samaraliroq ekanligini yoki non-radiativ rekombinatsiya yo‘qotishlarining kamayganligini anglatadi (5-**rasm**).



5-rasm: ITO shisha/PTAA/$MAPbI_3$ ning barqaror holatdagi fotolyuminessensiyasi (PL).Gaz bilan sovitish (GQ) va anti-erituvchi (AS) usullarining taqqoslanishi.

TRPL tahlillari esa gaz bilan sovitish usuli yordamida olingan namunalarda tez (τ_1) va sekin (τ_2) parchalanish komponentlarining qiymatlari optimallashganini ko‘rsatdi (6-**rasm**). Bu holat perovskit qatlamidagi nuqsonlar zichligining pasayganligi va yig‘ish jarayonining yaxshilanganligidan dalolat beradi.



6-rasm. ITO shisha/PTAA/perovskitning vaqtga bog‘liq fotolyuminessensiya (TRPL) spektrlari. Gaz bilan sovitish (GQ) va anti-erituvchi (AS) usullarining taqqoslanishi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari gaz bilan sovitish usuli perovskit fazasining morfologiyasini shakllantirishda ancha istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu usul bir necha yuz nanometrgacha bo‘lgan polikristalllarning o‘sishiga yordam beradi. Bunday morfologiyaning rivojlanishi perovskitning optoelektronik xususiyatlarini yaxshilaydi, taklif qilingan yondashuv esa qurilmalarning sanoat namunalarini ishlab chiqarish uchun juda mos keladi.

Dissertatsiyaning **"Tiomochevina qo‘shimchasi va gazni sovitish usuli bilan perovskit asosidagi quyosh elementi yaratish"** nomli **beshinchi bobida** yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan teskari (p-i-n) PQElarini ishlab chiqarish va ularning ishlash mexanizmlari batafsil o‘rganilgan. Bobda, avvalgi tadqiqotlar natijalariga tayanib, tiomochevina qo‘shimchasi va gazni sovitish texnologiyalarini birgalikda qo‘llash orqali qurilma samaradorligini sezilarli darajada oshirishga e’tibor qaratilgan.



7-rasm. Tiomochevina(thiourea) qo‘shimchasi bilan(with) va usiz(w/o) tayyorlangan invers perovskit quyosh elementining J–V xarakteristikasi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tiomochevina qo‘shilgan namunalarda 16.83% gacha yuqori quvvat konversiyasi samaradorligi (PCE) kuzatilgan, nazorat (qo‘shimchasiz) namunalari esa bor-yo‘g‘i 11.1% samaradorlikni namoyish etgan (7-**rasm:**). Bu topilmalar, tiomochevinaning Lewis asosi sifatida perovskitning fotovoltaik ishlashini va aktiv qatlam sifatini yaxshilashdagi muhim rolini isbotlaydi. Xulosa qilib aytganda, bobda tiomochevina qo‘shimchasi va gazni sovitish usulidan foydalanib, p-i-n tuzilishiga ega quyosh elementlari yaratilgan. Ushbu qurilmalar 12% dan 16% gacha takrorlanuvchan yuqori quvvat konversiya samaradorligini namoyish etgan.

Bobning ikkinchi bo‘limida p-i-n turdagi perovskitli quyosh elementlarida kovak o’takuzvchi qatlam sifatida ishlatiladigan PTAA eritmasining optimal konsentratsiyasi aniqlandi. Qurilmalarning J-V xarakteristikalari turli konsentratsiyalardagi (1,5-5 mg/ml) qiymatlari o‘lchandi va taqqoslandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, PTAA ning past konsentratsiyalarida Jsc, Voc, PCE va FF kabi asosiy parametrlar past qiymatlarga ega bo‘ldi. Bu ingichka yoki to‘liq bo‘lmagan HTL bilan bog‘liq bo‘lib, qurilmaning ketma-ket qarshiligini oshirdi. Aksincha, konsentratsiya oshirilganda (3-5 mg/ml), to‘ldirish koeffitsiyenti (FF) sezilarli darajada yaxshilandi, bu esa HTL va perovskit qatlami o‘rtasidagi aloqa



8-rasm: Turli konsentratsiyadagi PTAA/Toluol (1,5 – 5 mg/ml) bilan tayyorlangan perovskit quyosh elementining J–V xarakteristikalari.

yaxshilanganligini ko‘rsatadi. Eng yuqori samaradorlik 5 mg/ml konsentratsiyada kuzatildi, bu yerda PCE 17,3% ga yetdi, Voc 1,05 V va Jsc 22 mAcm−2 (8-rasm).

Dissertatsiyaning "**Invertirlangan PQElarida ikki qatlamli AZO/SnO$_x$ elektron ekstraksiya interfeysi orqali barqarorlikni oshirish yo‘llari**" deb nomlangan **oltinchi bobida** PQElarining tijoratlashuviga to‘sqinlik qiluvchi eng muhim muammolardan biri operatsion barqarorlik masalasi chuqur o‘rganilgan.

Bobning asosiy maqsadi SnO_x qo‘shimcha qatlamining $MAPbI_3$ asosidagi qurilmalarning termik, fotostrukturaviy va operatsion barqarorligini oshirishdagi rolini tizimli tahlil qilishdan iborat. Bu o‘rganish yuqori vakuum va uzluksiz yorug‘lik sharoitida o‘tkazilgan keng qamrovli sinovlarga asoslanadi.Tadqiqotda ITO/PTAA/$MAPbI_3$/PCBM/AZO/(SnO_x)/Ag arxitekturasiga ega bo‘lgan qurilmalar yaratilib, ularning yuqori vakuum (10^{-4} mbar) va uzluksiz yorug‘lik (520 nm LED, 20 mW/cm^2) sharoitida ishlash barqarorligi sinovdan o‘tkazilgan.

Bobning alohida bo‘limida turli sharoitlarda yuzaga keladigan degradatsiya mexanizmlari yoritilgan. Namlik va kislorodning perovskit materialiga ta’siri tahlil qilingan. Suv bug‘lari ishtirokida perovskitning $CH_3NH_3PbI_3 \rightarrow CH_3NH_3I + PbI_2$ kabi reaksiyalar orqali parchalanishi sodir bo‘lishi va bu parchalanishning qayta tiklanmasligiga sabab bo‘lishi aytilgan. N_2 atmosferasida yuzaga keladigan degradatsiya mexanizmi esa kamroq shikast yetkazadi, asosan ion migratsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi va qisman qayta tiklanishi mumkinligi ko‘rsatilgan (**9-rasm**).



9-rasm: Azot(N2) muhitida qaritilgan (aged) quyosh elementining barqarorligi.

Yuqori harorat ostidagi barqarorlik sinovlari ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. 60°C haroratda o‘tkazilgan testlar shuni ko‘rsatdiki, vakuum sharoitida saqlangan namunalar N_2 atmosferasidagi namunalarga nisbatan tezroq degradatsiyaga uchragan (**10-rasm**). Vakuum sharoitida PCE 16% dan 12% gacha pasaygan, holbuki, N_2 muhitida atigi 0.5% ga kamaygan. Bu natijalar vakuumning ion migratsiyasini kuchaytirishi va aktiv qatlamning parchalanishiga sabab bo‘lishini tasdiqlaydi. Tadqiqotda shuningdek, yuqori harorat ostida Ag elektrodlarida yuzaga kelgan korroziya (qorayish) vizual ravishda hujjatlashtirilgan, bu esa SnO_x qatlamining ushbu jarayonni samarali to‘xtatishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, J–V xarakteristikalarining kengaytirilgan tahlilida SnO_x qatlamining himoyalovchi bufer vazifasini bajarishi, namlik kirishini, ion migratsiyasini va interfeys yomonlashuvini samarali bostirishi qayd etilgan. **11-rasmda** $MAPbI_3$ asosidagi PQElarining yuqori vakuum (10^{-4} mbar) sharoitida barqarorligi.$MAPbI_3$ asosida ishlab chiqilgan

ITO/PTAA/$MAPbI_3$/PCBM/AZO/(SnOx)/Ag tuzilmasiga ega quyosh elementlarining ishlash barqarorligi 4 kun davomida uzluksiz yoritish (LED, 520 nm, 20 mW/sm²) ostida tekshirildi. Taqqoslash uchun SnOx qatlami bilan va usiz qurilmalar o‘rganildi.



10-rasm: Azot(N) muhitida va vakuum(V) sharoitida 60°C(heated) da saqlanganda quyosh elementining barqarorligi.

SnOx qatlami mavjud bo‘lmagan qurilmada samaradorlik keskin pasaydi: dastlabki(fresh) 17% dan 95 soat ichida 3% gacha tushib ketdi. Bu holat ion migratsiyasi, tuzilma degradatsiyasi va interfeysdagi nosozliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Aksincha, SnOx qatlami qo‘shilgan qurilmada barqarorlik ancha yuqori bo‘ldi: dastlabki 15% samaradorlik 50 soat davomida saqlanib, keyinchalik 11% gacha sekin kamaydi. Jsc qiymati ham barqaror saqlanib, fotozaryad tashish samaradorligi yuqori bo‘lib qoldi.

SnOx qatlami ion migratsiyasini cheklab, interfeysni himoya qiladi va elektron tashuvchi qatlam (ETL) vazifasini bajarib, uzoq muddatli ishlash barqarorligini ta’minlaydi. Eng muhimi, SnO_x qatlami bo‘lgan qurilmalarda 12 kunlik qorong‘i sharoitda saqlashdan keyin ishlash qobiliyatining qisman tiklanishi kuzatilgan . Bu esa, SnO_x ning nafaqat ishlash vaqtida barqarorlikni oshirishi, balki stressdan keyingi tiklanish mexanizmlariga ham yordam berishidan dalolat beradi. Aksincha, SnO_xsiz namunalarda hech qanday tiklanish kuzatilmagan, bu esa ulardagi degradatsiyaning qaytmas ekanligini anglatadi.Yakuniy xulosada, SnO_x qatlamining kumush (Ag) elektrodining korroziyasini (rang o‘zgarishi) samarali ravishda oldini olishi vizual ravishda isbotlangan (**12-rasm**).



11-rasm. a) $MAPbI_3$ qurilmasining yorug'lik (LED, 520 nm / P = 20 mW/cm²) ostida 10^{-4} mbar qattiq vakuum sharoitida 4 kun davomida ishlaganda o'lchangan J–V xarakteristikasi. Qurilma tuzilishi: ITO/PTAA/$MAPbI_3$/PCBM/AZO(SnOx)/Ag. b**)** Yuqori vakuum (10^{-4} mbar) sharoitida ishlaganda, ichki SnOx to'siq qatlami bilan va usiz $MAPbI_3$ perovskitli quyosh elementining quvvatni aylantirish samaradorligi (PCE) taqqoslanishi.

12-rasm. a) Yuqori vakuum sharoitida (10^{-4} mbar; 60 °C) termal stress ta'sirida metall elektrodning korroziyasi tufayli yuzaga kelgan rang o'zgarishini ko'rsatadigan suratlar. $MAPbI_3$ qurilmasi SnO_x qatlami bilan va usiz taqqoslangan.**b)** ALD usulida o'stirilgan ichki SnO_x to'siq qatlamini qo'shish orqali degradatsiya yo'llarining bostirilishini ko'rsatuvchi sxematik tasvir (Kai B va hammualliflar).

Bu SnO_x ning ionik va kimyoviy to'siq sifatida ikki tomonlama funksiyani bajarishini tasdiqlaydi, ya'ni perovskitdan ajralib chiqadigan halid ionlarining Ag elektrodiga yetib borishini to'xtatadi. Bu esa qurilmaning strukturaviy yaxlitligini saqlab qolishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari SnO_x kabi oraliq qatlamlarning PQElarining uzoq muddatli chidamliligi uchun naqadar muhimligini namoyish etadi va kelajak avlod perovskit fotovoltaik qurilmalarini yaratishda interfeys muhandisligi yo‘nalishiga qimmatli hissa qo‘shadi.

XULOSA

“Perovskit yutuvchi qatlamining shakillanish xususiyatlari bilan unga asoslangan quyosh elementlarining konversiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik” mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Perovskit materiallarining shakllanish jarayonlari va ularni barqaror ishlashini ta’minlaydigan omillar tadqiq etildi. Aniqlanishicha, poliyodid perovskitga o‘xshash tuzilmalar erituvchi turidan qat’i nazar, prekursor eritmasi kontsentratsiyasi ortishi bilan barqaror o‘sadi. Poliyodid komplekslarida zaryad/hajm nisbati kamaishi prekursor kontsentratsiya oshgani sayin perovskitga o‘xshash tuzilmalar kattalashishiga olib keladi. Bu jarayon ^{207}Pb YaMR, UB, UPS va eritma o‘tkazuvchanligini baholash usullari orqali tasdiqlandi.

2. Ilk bora tiomochevina qo‘shimchasining ta’siri ham o‘rganildi. U spin-coating bosqichida emas, balki asosan termik ishlov jarayonida namoyon bo‘lib, kristallarning <110> yo‘nalishi bo‘yicha o‘sishi va qayta yo‘nalishiga yordam beradi. Tiomochevina bo‘lmagan tizimlarda bunday ta’sir kuzatilmadi. YaMR va UPS tadqiqotlari bu jarayonning mohiyati kristallarning tezroq o‘sishiga yordam beruvchi ionlarning yuqori harakatchanligi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi.

3. Tadqiqotlar natijasida p-i-n tuzilishga ega quyosh elementlari yaratildi. Ular 12 % dan 18 % gacha yetuvchi barqaror samaradorlikni namoyish etdi. Olingan ma’lumotlar quyosh elementlarining chiqish xususiyatlari ularning morfologiyasi bilan chambarchas bog‘liqligini isbotladi. Bu bog‘liqlik tiomochevina ishtirokida shakllanadigan oraliq komplekslar, ularning rivojlanishi va termik ishlov jarayonida ionlar migratsiyasi kuchayishi bilan izohlanadi.

4. Gaz bilan sovutish qo‘shimchasi antesolventga nisbatan perovskit fazasining morfologiyasini shakllantirishda samaraliroq ekani aniqlandi. U polikristallarning bir necha yuz nanometrgacha o‘sishiga yordam beradi va natijada perovskitning optoelektron xususiyatlari yaxshilanadi. Bu yondashuv sanoat miqyosida qo‘llash va modul qurilmalar yaratishda ham qo‘llanishi mumkin.

5. Interfeys muhandisligi barqarorlik uchun hal qiluvchi ekanligi isbotlandi: Yuqori vakuum sharoitida o‘tkazilgan termik stress sinovlari interfeys muhandisligining PQElarining barqarorligi uchun hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqladi. Ikki qatlamli AZO/SnO_x elektron ekstraksiya qatlami (EEL) bo‘lgan ultra-barqaror invertirlangan arxitektura ishlab chiqildi. Bu yerda 20 nm qalinlikdagi ALD (atom qatlami bilan qoplash) usulida o‘stirilgan SnO_x qatlami zich to‘siq vazifasini bajarib, namlikning kirishini to‘xtatdi va parchalanish mahsulotlari, masalan, CH_3NH_3I va HI ning chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymadi. Bundan tashqari, bu qatlam ion migratsiyasi tufayli kelib chiqadigan degradatsiyani va elektrodning yemirilishini kamaytirib, o‘zining ko‘p funksiyali samaradorligini isbotladi.

ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL AT THE SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARD OF SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 AT THE INSTITUTE OF POLYMER CHEMISTRY AND PHYSICS

INSTITUTE OF POLYMER CHEMISTRY AND PHYSICS

JULLIEV ZAVKIDDIN NORMENGLI UGLI

RELATIONSHIP BETWEEN THE FORMATION FEATURES OF A PEROVSKITE ABSORBER AND THE CONVERSION PERFORMANCE OF SOLAR CELLS BASED ON IT

01.04.06 – Polymer physics
02.00.12 – Nanochemistry, nanophysics and nanotechnology

DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL – MATHEMATICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

The theme of the doctor of philosophy (PhD) is registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan № B2025.2.PhD/FM1331.

The dissertation was carried out at the Institute of Polymer Chemistry and Physics.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) is available online (polchemphys.uz) and on the website of "ZiyoNET" information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Ashurov Nigmat** doctor of technical sciences, professor
Official opponents:	**Matrasulov Davronbek** doctor of physical and mathematical sciences, professor
	Turaeva Nigora doctor of physical and mathematical sciences, professor
Leading organization:	**Nanotechnology Development Center at the National University of Uzbekistan named after MirzoUlugbek**

The defense of the dissertation will take place on «__» ***january*** 2026 at «____» o'clock at a meeting of Scientifical council DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 at the Institute of Polymer Chemistry and Physics (Address: 100128, Tashkent city, Abdulla Kadiry str., 7^b, Ph.: (998-71) 241-85-94; fax: (998-71) 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz.

The dissertation can be reviewed at the Informational Resource Centre of Institute of Polymer Chemistry and Physics (registration number_____ (Address: 100128, Tashkent city, Abdulla Kadiry str., 7^b, Ph.: (998-71) 241-85-94;).

The abstract of the dissertation has been distributed on «____» ***december*** 2025 y.

(Protocol at the register № ________dated «____» ***december*** 2025 y).

S.Rashidova
Chairman of the one-time scientific council for awarding
the scientific degrees, doctor of technical sciences
professor, academician

I.Nurgaliev
Scientific secretary of one-time scientific council
for awarding the scientific degrees,
doctor of physical and mathematical sciences, senior researcher

A.Atakhanov
Chairman of scientific seminar under one-time scientific council
for awarding the scientific degrees,
doctor of chemical sciences, professor

INTRODUCTION (PhD dissertation abstract)

Relevance and necessity of the dissertation topic. Due to the growth of the world's population, the demand for energy resources is rapidly increasing on a global scale. In this context, the creation of low-cost perovskite solar cells with simple production technology and high efficiency is one of the urgent challenges.

Currently, leading scientific centers worldwide are actively conducting research to address several critical issues facing perovskite-based solar cells in order to achieve high efficiency. In this regard, enhancing the optoelectronic properties of perovskite, finding ways to passivate and reduce defects, and improving the stability of devices are of great scientific importance.

In our Republic, consistent fundamental and applied research on alternative solar cells has also been carried out in recent years. Specifically, significant results have been achieved in the initial steps towards improving the conversion efficiency in PSCs, primarily by introducing specific additives into the active layer to find optimal conditions, understand their role, and study the stability of the resulting cells. These advancements primarily focus on identifying optimal conditions through the incorporation of specialized additives into the active layer, elucidating their underlying roles, and investigating the long-term stability of the resulting devices. Such research demonstrates that various specialized additives facilitate an increase in the final grain size of the perovskite active layer, thereby enabling the development of high-efficiency photovoltaic devices by reducing grain boundary density. Furthermore, the Development Strategy of New Uzbekistan and the Science Development Concept until 2030 outline clear objectives for “expanding and supporting the utilization of renewable energy sources”. In this regard, scientific and practical research aimed at the creation and practical implementation of a new generation of renewable solar cells remains of vital importance.

This dissertation research is aimed at solving the scientific and technical problems stipulated by the Law of the Republic of Uzbekistan dated May 21, 2019 No. LRU-539 "On the Use of Renewable Energy Sources," Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 22, 2019 No. PD-4422 "On Accelerated Measures to Increase Energy Efficiency of the Economic and Social Spheres, Introduce Energy-Saving Technologies and Develop Renewable Energy Sources." This dissertation research, to a certain extent, serves the implementation of the tasks defined in the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On the Use of Alternative Energy," as well as in other regulatory legal acts related to the use of alternative energy.

The Compliance of the research with the priority directions of development of science and technology of the Republic. This dissertation work was carried out in accordance with the priority areas of the development of science and technology of the Republic of Uzbekistan: III "Energy, energy efficiency, transport, development of mechanical and electronic equipment", II "Physics, astronomy, energy and mechanical engineering" and VII. "Chemical technologies and nanotechnologies".

The degree of study of the problem. In many leading scientific centers of the world, scientific research is being actively conducted to achieve high efficiency in solar cells based on perovskite. Park N.G., Snaith H.J. and a number of scientists have made a significant contribution to the development of scientific directions on perovskite solar cells (PCE) with a planar structure. In many countries of the world, scientific research is being conducted aimed at improving the crystalline quality, granule growth, and stability of perovskite. In this direction, it is necessary to note the scientific research conducted by Yang Yang, J. Hou, and A. Hagfeldt on controlling the crystallization process using additives, by A. Graetzel, M. Saliba, and H. J. Snaith on morphology optimization and obtaining high-quality layers, and by Y. L. Loo, S. R. Forrest, and M. Graetzel on interface engineering in p-i-n structures to ensure long-term stability of PQE.

Academician S.Sh. Rashidova, Professors N. R. Ashurov's team, as well as B. L. Oksengendler, N. N. Turaeva, D. U. Matrasulov, E. Zakhidov, A. Zakhidov, and others, with their scientific research on organic-inorganic perovskites, have contributed to the development of this area in our republic.

